

## ARIZONA KIPARISINING BUXORO SHAHRIDA INTRODUKSIYASI VA TARQALISHI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17622604>

**Toxirova Nargiza**

*Buxoro davlat Universiteti*

*2-bosqich magistri*

*Gmail: [tohirovanargiza632@gmail.com](mailto:tohirovanargiza632@gmail.com)*

*Tel: (94) 027-67-50*

### **Anotatsiya**

O'zbekistonda yashil hududlarni kengaytirish, ekologik muvozanatni saqlash va shaharsozlikda dekorativ o'simliklardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jarayonda mahalliy sharoitga introduksiya qilingan daraxt va butalarning ahamiyati ortib bormoqda. Shunday introduksiya qilingan o'simliklaridan biri Arizona kiparisi (*Cupressus arizonica* Greene) bo'lib, u Buxoro shahrida so'nggi o'n yilliklarda ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llanila boshladi. Ushbu maqolamizda Arizona Kiparisning Buxoro shahrida tarqalishi haqida so'z boradi.

### **Kalit so'zlar**

Arizona kiparisi (*Cupressus arizonica* Greene), tabiiy tarqalish, moslashuvchanlik.



**Kirish:** Arizona kiparisi Cupressaceae oilasiga mansub doimiy yashil ignabargli daraxt hisoblanadi. Asosan Shimoliy Amerikaning janubiy hududlarida, Meksikaning shimoliy va markaziy tog'li tumanlarida, AQSH ning Arizona, Texas,

Kaliforniyaning janubi sharqiy tog'lari Arizona kiparisining tabiiy tarqalish hududlari hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib Avstraliya, Yangi Zelandiya, O'rta yer dengizining ayrim mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Gretsiya), O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston hududlarida Arizona kiparisi madaniylashtirilgan. Arizona kiparisi birinchi marta AQSHning Arizona shtatida aniqlanganligi sababli daraxtga shunday nom berilgan. Daraxtning balandligi odatda 15–25 m, diametri esa 50–60 sm gacha yetadi, shox-shabbasi keng piramidasimon yoki yumaloq shaklda bo'ladi. Barglari ignasimon emas, balki mayda tangachasimon ko'rinishga ega. Mevasi yirikroq, yumaloq shoxchali ko'knorsimon qubbachalardan iborat bo'lib, urug'larining unuvchanligi yuqori emas. Daraxtning po'stlog'i jigarrang-kulrang tusga ega bo'lib, yoshi o'tgan sari qobig'i qalinlashib boradi. Arizona kiparisi o'zining sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamliligi bilan boshqa kiparis turlaridan farq qiladi. Gullashi bahorda sodir bo'ladi, changchilari sariq rangda bo'lib, shamol orqali changlanadi. Mevasi mayda, qobiqsimon shoxchaga o'xshash bo'lib, pishishi uchun 2 yildan ortiq vaqt talab etiladi. Daraxtning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 100–150 yil. O'sish tezligi dastlabki yillarda sekinroq bo'lsa-da, 5–6 yildan so'ng barqaror rivojlanadi. Barglari hamisha yashil bo'lib, qishda ham shahar manzarasini bezab turadi. Shuningdek, daraxt xushbo'y smolaga ega bo'lib, havo sifatini yaxshilashda foydalidir.

Buxoro shahri quruq iqlim mintaqasida joylashgan bo'lib, yozda havo juda issiq va qurg'oqchil, qishda esa nisbatan sovuq bo'ladi. Atmosfera yog'inlari yil davomida kam miqdorda tushadi. Bunday sharoit ko'plab daraxt turlarining moslashishi uchun murakkab hisoblanadi. Ammo Arizona kiparisining ildizi chuqur bo'lganligi uchun qurg'oqchilikka va sho'rlangan tuproqlarga ma'lum darajada chidamliligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, kiparis sovuq qishlarga ham moslashib, yashil holatda qishlab chiqadi. Hududda kiparis ekish bo'yicha tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, daraxt yaxshi o'sishi uchun qumloq va sho'rlanish darajasi past bo'lgan tuproqlar eng ma'qul hisoblanadi. Suv tanqisligi sharoitida ham kiparis daraxti uzoq muddat yashay oladi, biroq parvarish qilinsa, o'sishi yanada tezlashadi. So'nggi kuzatuvlarga ko'ra, Buxoro shahrining ko'plab xiyobonlari, bog'lari va turar-joy massivlarida Arizona kiparisi muvaffaqiyatli o'sib bormoqda. Ayniqsa, shaharning Ismoil Somoniy xiyoboni, Shahidlar xotirasi yodgorlik majmuasi atrofida va yangi qurilgan mahallalarda bu daraxtning ko'chatlari ko'p ekilgan.



Arizona kiparisini Buxoroning Islom Karimov ko'chasida, Minor savdo majmuasi atrofida, "Sitorai Mohi Xosa" saroyi atrofidagi parkda, Yangi massivlar "Buxoro city" atrofida, Ismoil Somoniy xiyobonida, Ark qo'rg'oni atrofi yo'l yoqalarida va Buxoro temir yo'l vokzali atroflarida uchratish mumkin.

**Ekologik va estetik ahamiyati:** Arizona kiparisi changni ushlab qolish qobiliyati yuqori bo'lgani tufayli Buxoro shahrida ko'paytirish juda ham muhim sanaladi. Daraxtning doimiy yashil shox-shabbasi yil davomida ekologik barqarorlikni ta'minlab, kislorod ishlab chiqaradi. Daraxt qattiq shamollarda himoya vazifasini bajaradi, chang to'zonlarni kamaytiradi. Tuproqni eroziyadan saqlaydi, qumli hududlarda mustahkamlovchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga, Arizona kiparisi shahar manzarasini bezashda, yashil devorlar va himoya o'rmonzonalar barpo etishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda Arizona kiparisini shahar hududida yo'lbo'yi daraxtzorlar orasida, xiyobonlarda va issiqqa chidamlilik xususiyati sababli transport yo'llari atrofida ko'p uchratish mumkin

Buxoro sharoitida Arizona kiparisini introduksiya qilish, ekish va parvarish qilishda bir qancha muammolar mavjud. Jumladan, tuproqning sho'rlanishi va sifatsizligi, cug'orish tizimlarining yetarli emasligi, ba'zi hollarda zararkunandalar va kasalliklarga chidamsizligi, ekstremal iqlim sharoitlari, ya'ni yozda haddan tashqari issiqlik, qishda keskin sovuqlarning bo'lishi. Ushbu holatlar Arizona kiparisining o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'simlikni tadqiqot hududiga moslashtirish uchun quyidagi tavsiyalar berib o'taman: kiparis daraxtlarini ekishda sug'orish tizimlarini yaxshilash, sho'r tuproqlarda maxsus agrotexnik chora-tadbirlarni qo'llash, ekologik monitoring olib borish va daraxtlarni muntazam parvarish qilish va mahalliy aholini yashil

hududlarni parvarishlash ishlariga keng jalb etish. Arizona kiparisi Buxoro shahrining quruq iqlim sharoitida boshqa ignabargli daraxtlarga qaraganda chidamliroq hisoblanadi. U yuqori haroratlarga (+40–45°C gacha) bardosh bera oladi, qurg'oqchilik davrida ham yashil holatini uzoq muddat saqlab qoladi, sho'rlangan tuproqlarda ham o'sish xususiyatiga ega. Arizona kiparisi nafaqat dekorativ maqsadda, balki ekologik vazifalarni bajarishda ham muhim: u shamol eroziyasiga qarshi himoya daraxtzorlari sifatida ekilishi mumkin, zararli gazlarni qisman neytrallaydi va changni filtrlash qobiliyatiga ega.

**Xulosa:** Arizona kiparisi Buxoro shahrining iqlim sharoitida qiyinchiliklarga qaramay, yaxshi moslashayotgan manzarali va ekologik jihatdan muhim introduksiya o'simliklaridan biri hisoblanadi. U shahar ekologik muhitini yaxshilash, manzarali ko'rishni ta'minlash va barqaror yashil hududlar yaratishda katta rol o'ynaydi. Kelgusida ilmiy-tadqiqotlar asosida ko'chatlarni yanada sifatli parvarish qilish usullari ishlab chiqilsa, Arizona kiparisi Buxoro shahrining ko'kalamzorlashtirish siyosatida muhim o'rin egallashda davom etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев, Н. (2018). O'zbekiston hududida introduksiya qilingan manzarali daraxt turlari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Қодиров, А. ва бошқ. (2020). O'rmon xo'jaligi va landshaft dizayni asoslari. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
3. Мухаммедов, Ш. (2019). "Buxoro shahrida yashil hududlarni kengaytirish masalalari". Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish jurnali, №4, 45–52.
4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi. (2022). Shahar hududlarida ko'kalamzorlashtirish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent.
5. Бекмуродов, У. (2021). "Ignabargli daraxtlarning O'zbekiston sharoitida introduksiyasi". O'zbekiston o'simliklar dunyosi jurnali, №2, 60–68.
6. Flora of Uzbekistan. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Hasanov Sh. "O'zbekistonning manzarali daraxt va butalari." – Toshkent, 2009.